

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali direktori:

Baydjanov Maksudbek Islamdjanovich

Qabul kunlari: Har kuni soat 08:00 dan 11:00 gacha

Telefon: (0362)-224-61-32

E-mail: info@ubtuit.uz

Urganch filiali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 iyundagi PQ-91 son "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005 yil 14 iyundagi 130-son "Oliy ta'lim muassasalari filiallari to'g'risidagi namunaviy Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligining 2005 yil 21 iyul 07-8/2015-son taqdimnomasini amalga oshirish maqsadida 2005 yil 23 iyuldan Urganch shahrida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining mintaqaviy filiali sifatida tashkil etilgan.

Filial tarkibida bitta "Kompyuter injiniringi" fakulteti faoliyat yuritmoqda. Bu fakultetda "Axborot texnologiyalari", "Axborot ta'lim texnologiyalari", "Tabiiy va umumkasbiy fanlar", "Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar", "Dasturiy injiniringi", "Telekommunikatsiya injiniringi" kafedralari mavjud bo'lib, ularda 56 nafardan ziyod professor-o'qituvchilar talabalarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar.

Filial qoshida bitta akademik litsey, axborot texnologiyalari markazi, axborot-resurs markazi, til o'rganish markazi, yosh dasturchilar markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Filial talabalari Respublika va jahon miqyosidagi musobaqa va tanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bakalavrlar tayyorlaydi:

- Kompyuter injiniring ("Kompyuter injiniring", "IT-servis", "Multimedia texnologiyalari");
- Dasturiy injiniring;
- Axborot xavfsizligi;
- Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiya", "Teleradiouzatish", "Mobil tizimlar");
- Axborot-kommunikatsiyalar sohasida kasb ta'limi.

Xalqaro aloqalar va ilmiy faoliyat

Filialda magistrlar va katta ilmiy xodim izlanuvchilar tayyorlash maqsadida Sankt-Peterburg Davlat axborot texnologiyalari, mexanika va optika universiteti, Shvesiya qirollik texnologiya universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Ispaniyaning Kardoba universitetlari bilan xalqaro aloqalar o'rnatilgan. Filial professor-o'qituvchilari Fan va texnologiyalarning rivojlanishini muvofiqlashtirish qo'mitasining 4 ta ilmiy grantlari bo'yicha izlanish olib bormoqdalar.

Bitiruvchilarning faoliyat ko'rsatish soialari

Hozirgacha filialni bitkazgan 50 nafardan ziyod magistr va 1000 nafardan ziyod bakalavrlar Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oily ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, xalq ta'limi, bank kabi sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Urganch filiali nizomi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali murojaat ma'lumotlari:

- Tel.: (8 362) 224-61-32
- Faks: (8 362) 224-61-32
- e-mail: tuituf@tuit.uz

- Rasmiy veb sahifasi: www.ubtuit.uz